

TURLI TILLARDAN NEMIS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
THE LINGUISTIC ANALYSIS OF LOANWORDS IN THE GERMAN LANGUAGE FROM
VARIOUS DOMAIN

Ch.U.Xolmurodova -

O‘zMU Filologiya va tillarni o‘qitish 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar- Umarova Zamira-
O‘zMU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola “Turli sohalardan nemis tiliga o‘zlashgan so‘zlarning xususiyatlari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, nemis tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ilmiy-texnik matnlardagi tahlili va xususiyatlarini o‘rganadi. Maqolada o‘zlashgan so‘zlarning grammatika, fonetika, semantika va leksik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy-texnik sohalarda o‘zlashgan so‘zlarning tilga ta’siri, ularning til tizimidagi o‘rni va rivojlanish jarayoni yoritiladi. Maqola statistika va diagrammalar orqali o‘zlashgan so‘zlarning tarqalishini va samaradorligini tahlil qiladi, bu esa ilmiy tadqiqotlar va tilshunoslik sohasidagi yangi yondashuvlar uchun asos bo‘ladi.

Annotation: This article focuses on the topic “Characteristics of Loanwords in German from Various Fields,” examining the analysis and characteristics of loanwords from English into the German language in scientific and technical texts. The article provides a deep analysis of the grammatical, phonetic, semantic, and lexical features of loanwords. Additionally, the impact of loanwords on the language, their place in the linguistic system, and their development process are discussed. The article analyzes the distribution and effectiveness of loanwords through statistics and diagrams, serving as a basis for new approaches in scientific research and linguistics.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘zlar, lug‘at boyligi, til rivojlanishi, boshqa tillarning ta’siri, chet so‘zlar, o‘zlashma ma‘no, til o‘zgarishi, xalqaro so‘zlar, til aloqasi.

Keywords: loanwords, vocabulary richness, language development, influence of other languages, foreign words, borrowed meaning, language change, international words, language contact.

Ma’lumki, har qanday tilning lug‘aviy qatlami faqat o‘z qatlamdan iborat bo‘lmaydi. Ijtimoiy hodisa bo‘lgan til doimo o‘zgarishda bo‘ladi. Boshqa tillar bilan uzluksiz aloqada bo‘ladi. Bu jarayon tabiiyki tilda o‘z aksini topadi. Boshqa tillar qatori nemis tili ham tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishi jarayonida o‘z so‘zlari bilan bir qatorda o‘zlashma so‘zlar ham ma’lum bir rol o‘ynagan. O‘zlashmalarning aksariyati fonetik, leksik va morfologik nuqtai nazaridan o‘zgarishlarga uchragan so‘zlar bo‘lib, ular nemis tili lug‘at boyligidan chuqur o‘rin olgan.

Har bir tilning o‘z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi kuzatilgan. Mana shunday jarayonlarda turli tillarga yangi so‘zlarning kirib kelishi o‘sha tillarning lug‘ati tarkibi boyishidan dalolat beradi.

Har qanday tilga boshqa tillardan so‘z o‘zlashishi turli jarayonlar orqali kechadi va so‘zlar turli shakllarda o‘zlashadi. Jumladan, nemis tiliga so‘z o‘zlashishing bir qancha yo‘llari bo‘lib, ushbu o‘zlashma so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi. Bular nemis tiliga to‘liq o‘zlashib ketgan so‘zlar (Lehnwörter) va chet til (Fremdwörter) so‘zlaridir. To‘liq o‘zlashib ketgan so‘zlar asosan qadimgi, o‘rta hamda yangi nemis adabiy tili davrlarida kirib kelgan hamda to‘liq nemis tiliga moslashib ketgan so‘zlardir.

Bularni hozirda hech kim chet tilidan kirib kelgan so‘zlar sifatida tushunmaydi. Masalan: *Fenster*,

Mauer, Mönch, tanzen, schreiben va boshqalar.

Chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar (Fremdwörter) nemis tilida keng qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, ularning o‘zlashgan so‘zlar ekanligi ko‘rinib tursada, xorijiy so‘z sifatida ko‘rilmaydi hamda nemischa ekvivalenti bilan almashtirib qo‘llanilmaydi. Masalan: *Politik, Sport, interessant, Interview, demonstrieren* va boshqalar.

Nemis tiliga asosan quyidagi yo‘llar bilan so‘zlar o‘zlashtiriladi:

1. Chet tilidagi so‘zni ham shakli, ham ma‘nosi bilan birga to‘liq o‘zlashtirish, ya‘ni oddiy usul (einfache Entlehnung). Masalan: *okay, hi, Sputnik, Sozialismus*.

2. So‘zlarni kalkalash orqali tarjima qilib o‘zlashtirish (Lehnübersetzung).

Masalan: ingl. *Football-Fussball, useless-nutzlos*.

3. O‘zlashtirilgan xalqaro so‘zlar (Internationalismen). Bular turli tillarda bir xil shakl va ma‘noda ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, ular asosan turli soha terminlaridan iboratdir. Masalan: Nemischa - *der Student*, Inglizcha - *Student*, Fransuzcha - *Le tudiant*, Ruscha - *Студент*, O‘zbekcha - *Student*.

So‘z o‘zlashishining lingvistik jihatlari sifatida, nemis tiliga boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashishi ko‘pincha tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lganligini keltirib o‘tish mumkin. Masalan, lotin, fransuz, ingliz va boshqa tillardan ko‘plab so‘zlar nemis tiliga kirib kelgan. Bu o‘zlashmalar tilning lug‘at boyligini oshiradi va yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘zlashgan so‘zlar nemis tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimiga moslashadi. Masalan, “Computer” (kompyuter) so‘zi ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, nemis tilida ham xuddi shu shaklda qo‘llaniladi.

So‘z o‘zlashishi tilshunoslik nuqtayi nazaridan fonetik, morfologik, semantik va sintaktik jihatlardan tahlil qilinadi.

Fonetik jihatlar:

1. O‘zlashgan so‘zlarning tovush tizimi qabul qiluvchi til fonologiyasiga moslashadi.

2. Nemis tilida lotin va fransuz tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda aksent va tovushlarning o‘zgarishi kuzatiladi, masalan: “*Restaurant*” [restobã] (fransuzcha talaffuz) → [restoran] (nemischa talaffuz).

Morfologik jihatlar:

1. O‘zlashma so‘zlar qabul qiluvchi tilning grammatik tizimiga moslashtiriladi.

2. Nemis tilida o‘zlashgan so‘zlar odatda nemischa urg‘u va flektiv tizimga moslashadi. Masalan, “*Computer*” (inglizcha computer) nemis tilida ot sifatida “*der Computer*” shaklida qabul qilinadi va flektiv deklinatsiyaga bo‘ysunadi.

Semantik jihatlar:

1. So‘zning asosiy ma‘nosi yoki qo‘shimcha ma‘nolari o‘zgarishi mumkin.

2. Semantik torayish yoki kengayish kuzatilishi mumkin: masalan, nemis tilida “*Handy*” so‘zi ingliz tilidagi handy sifatidan kelib chiqqan, lekin nemis tilida “*mobil telefon*” ma‘nosini olgan.

Sintaktik jihatlar:

1. O‘zlashgan so‘zlar jumla tarkibida o‘zbek va nemis tili kabi morfologik jihatdan farqlanuvchi tillarda turlicha qo‘llanadi.

2. Masalan, nemis tilida inglizcha “*to download*” fe‘li herunterladen shakliga moslashgan va fe‘l oxirida keladi: Ich lade das Programm herunter (“Men dasturni yuklab olmoqdaman”).

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, so‘z o‘zlashishi ong, idrok va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi jihatlar ajralib turadi.

Ikki va ko‘p tillilik ta‘siri:

1. Bilingv va polylingv shaxslar soʻzlarni tilda tezroq oʻzlashtiradi.
2. Kode-almashish (Code-Switching) va kode-aralashish (Code-Mixing) fenomenlari kuzatiladi, bu jarayonda kishi bir vaqtning oʻzida bir necha tillardan foydalanishi mumkin: *Ich habe ein Meeting um 10 Uhr* (Men soat 10 da yigʻilishim bor).

Soʻz tanlash va mental leksikon:

1. Soʻz tanlashda kishining mental leksikoni muhim rol oʻynaydi.
2. Nemis tilida inglizcha va fransuzcha oʻzlashmalar tez tanlanadi, chunki ularning koʻp qismi xalqaro leksikaga mansub: *Manager, Interview, Rendezvous* kabi soʻzlar tez esda qoladi.
3. Oʻzlashgan soʻzlar fonologik, semantik yoki morfologik jihatdan farq qilishi sababli kognitiv jarayonlar ularni qayta ishlashga vaqt talab qiladi.

Lingvistik nufuz va prestij:

1. Ingliz, fransuz va nemis tillarining dunyodagi nufuzi sababli ularning soʻzlari boshqa tillarga tez oʻzlashadi.
2. Nemis tilida inglizcha “*trendy, cool, job, online*” kabi soʻzlarning faol qoʻllanilishi psixolingvistik motivlarga ega, chunki ular yoshlar orasida prestijli hisoblanadi.

Nemis tili oʻzining texnik va ilmiy terminologiyasi bilan dunyoda muhim oʻrin egallaydi. Nemis tilidan oʻzlashgan ilmiy va texnik terminlar asosan fizika, kimyo, tibbiyot, muhandislik va texnologiya kabi sohalarda uchraydi. Bu soʻzlar asosan xalqaro terminlarga aylangan va turli tillarga kirib borgan.

Globalizatsiya, ilmiy taraqqiyot va texnologik innovatsiyalar natijasida ingliz tilidan koʻplab soʻzlar nemis tiliga oʻzlashgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ilm-fan, muhandislik va axborot texnologiyalari sohalarida inglizcha terminlar nemis tilida keng qoʻllanila boshladi. Ushbu oʻzlashmalar baʼzan asl holatda, baʼzan esa nemis tilining grammatik qoidalariga moslashtirilgan holda ishlatiladi.

Ushbu jarayonda ilm-fan va texnika sohasiga oid soʻzlarning toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashmalar, moslashtirilgan oʻzlashmalar, tarjimaviy oʻzlashmalar va yarim oʻzlashmalar kabi turlarga ajralishi kuzatildi.

1. Toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashmalar - bu soʻzlar ingliz tilidan hech qanday oʻzgarishsiz nemis tiliga kirib kelgan va ishlatilmoqda (*Computer, Internet, Laser*).
2. Moslashtirilgan oʻzlashmalar - soʻzlar nemis tilining fonetik va morfologik tizimiga moslashtirilib, yangi shaklda ishlatiladi (*Telefon < Telephone, Struktur < Structure*).
3. Tarjimaviy oʻzlashmalar - inglizcha soʻzning maʼnosi saqlanib, nemischa muqobil soʻz bilan ifodalanadi (*Sprachbarriere < Language barrier, Künstliche Intelligenz < Artificial Intelligence*).
4. Yarim oʻzlashmalar - inglizcha va nemischa elementlarning aralashmasidan hosil boʻlib, koʻpincha nemischa feʼl yasash qoidasiga moslashtiriladi (*Googeln, Chatten, Posten*).

Ushbu tadqiqotda turli sohalardan nemis tiliga oʻzlashgan soʻzlarning lingvistik, morfologik va semantik xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda oʻrganildi. Zamonaviy dunyoda tillararo oʻzaro taʼsir jarayoni globallashtirish, fan-texnika taraqqiyoti va madaniy aloqalar natijasida yanada jadallashib bormoqda. Ayniqsa, ilm-fan va texnika sohasida ingliz tilidan nemis tiliga oʻzlashgan soʻzlarning keng qoʻllanilishi ushbu jarayonning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ilmiy-texnik terminlarning oʻzlashuvi bir necha yoʻnalishda amalga oshadi. Ayrim atamalar oʻzining asl shaklini saqlagan holda nemis tiliga kirib kelgan boʻlsa, boshqalari fonetik va morfologik moslashuvlarga uchragan yoki tarjima yoʻli bilan qabul qilingan. Bu jarayon, bir tomondan, nemis tilining dinamik taraqqiyotini taʼminlasa, ikkinchi tomondan,

xalqaro ilmiy aloqalar va texnologik taraqqiyotga moslashishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, turli tillardan turli sohalar qamrovida nemis tiliga o'zlashgan so'zlar nemis tili lug'at qatlamining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ularning lingvistik va semantik xususiyatlari doimiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Ushbu tadqiqot natijalari, o'zlashmalar tahlilining ilmiy-nazariy asoslari tilshunoslik va terminologiya tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Kelajakda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq holda o'zlashmalar soni ortishi va ularning nemis tilidagi funksional ahamiyati yanada kuchayishi kutiladi. Kelajakda ilm-fan va texnologiya yanada rivojlanishi bilan birga, nemis tilidagi ilmiy-texnik matnlarda o'zlashmalar soni ham ortib borishi kutilmoqda. Shu bois, bu jarayonni tizimli ravishda o'rganish, yangi terminlarni standartlashtirish hamda ularning ilmiy-texnik sohalardagi ta'sirini tahlil qilish muhim ilmiy masalalardan biri bo'lib qoladi. Ushbu tadqiqot natijalari nemis tilining ilmiy terminologiyasi bo'yicha kelgusidagi lingvistik izlanishlarga ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eichhoff J. Lehnwörterbuch: Entlehnungen der deutschen Sprache in der Gegenwart, Walter de Gruyter 2001
2. Eisenberg P. Englisch im Deutschen: Untersuchungen zum Einfluss der englischen Sprache auf das Deutsche, Akademie Verlag 1994
3. Iskos A, Lenkova A, Deutsche Lexikologie, Leningrad, Procvishinia 1975, S.283
4. Gustav Gröber, Entlehnung in der Kommunikation und im Sprachwandel, Tübingen 2011
5. Scharnhorst J. Das Fremdwort im Deutschen: Sprachpurismus und Sprachwandel, Erich Schmidt Verlag 2005